O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2023 - yil 7 - yanvar VI-68-1-12-218-K/23 Tuproqqal'a tumani hokimligi

Tuproqqal’a tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-dekabrdagi 01-01-33-38//409-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23-sonli qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 81656544,0 ming so‘m, xarajatlari 92789910,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 11133366,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Tuproqqal’a tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan

miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023-yil uchun Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun viloyat budjetidan Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qarorda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun Tuproqqal’a tumani mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 859306,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg’armasi tegishli budjetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag’dan tashqari) 1,0 foiz miqdorida shakllantirilsin.

9. 2023-yil uchun Tuproqqal’a tumani mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 2023-yil uchun belgilangan minimal miqdorlar 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat va tuman budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy istehmolchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yildan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yiladi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilganligi;

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

13. Tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Sultonov), Moliya bo‘limi (B.Atabaev), Davlat soliq inspektsiyasi (S.Ruzimova) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida etibor qaratsin.

14. Xalq deputatlari tuman Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

- mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi

hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

- Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

- mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

15. Tuman hokimligi:

- tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

- xalq deputatlari, tuman Yoshlar ishlari agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

- mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob‘ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

16. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Sultonov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibyati, tegishli bo‘lim boshliqlari:

- mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

17. Tuman hokimligi Qarorda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov

stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

18. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Salayev**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-68-1-12-218-K/23-son qaroriga
1-ilova

TUPROQQAL'A TUMANI MAHALLIY BUDJET 2023-YIL UCHUN DAROMADLARINING REJA KO'RSATKICHLARI

(ming so'mda)

Daromad turlari		**Miqdori**
JAMI DAROMAD		**81,656,544**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	4,086,000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	22,122,000
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	337,000
4	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	14,840,000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9,957,000
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2,106,000
7	Yuridik shaxslarning yer solig'i	11,656,000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliq	3,138,000
9	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	50,000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3,987,000
11	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	91,000
JAMI		**72,370,000**
	Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i tushumlaridan tegishli ravishda o'tkazib beriladigan daromadlar	**9,286,544**
1	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	3,756,883
2	Mobil aloqa xizmati	1,611,484
3	Tamaki mahsulotlari	3,918,177

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-68-1-12-218-K/23-son qaroriga
2-ilova

TUPROQQAL’A TUMAN BUDJETIDAN HUDUDIY BUDJET MABLAG’LARINI TAQSIMLOVCHILARGA 2023-YIL UCHUN AJRATILADIGAN MABLAG'LARNING UMUMIY CHEKLANGAN MIQDORLARI

(ming so‘mda)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**92,789,910.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**92,789,910.0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0.0**
1	**Maktabgacha tahlim bo‘limi**	**8,917,613.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	8,917,613.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**5,200,806.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	5,200,806.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Tibbiyot birlashmasi va SEO va JSX**	**29,219,887.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	29,219,887.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Madaniyat bo‘limi**	**433,828.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	433,828.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**2,022,636.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	2,022,636.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

6	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**8,220,093.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	8,220,093.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**347,090.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	347,090.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi**	**287,820.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	287,820.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Irrigatsiya bo‘limi**	**729,765.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	729,765.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Moliya bo‘limi**	**1,462,100.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	1,462,100.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"**	**9,200.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	9,200.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1,064,959.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	1,064,959.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi**	**749,980.0**

	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	749,980.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Hokimiyat**	**29,838,539.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	29,838,539.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi**	**2,196,580.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	2,196,580.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Xalq deputatlari Kengashi kotibyati**	**204,964.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	204,964.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi**	**1,884,050.0**
	шу жумладан:	
	joriy xarajatlar	1,884,050.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-68-1-12-218-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

(foiz hisobida)

T/r	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Aksiz solig’i: - benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy istehmolchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qahridan foydalanganlik uchun soliq;	Ijara to‘lovlari
1	Tuproqqal'a tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-68-1-12-218-K/23-son qaroriga
4-ilova

TUPROQQAL’A TUMANI MAHALLIY BUDJETINING 2023-YIL DAROMADLARI VA XARAJATLARIING CHEGARAVIY HAJMI

(ming so’mda)

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**81,656,544.0**	**92,789,910.0**
Tuproqqal’a tumani	81,656,544.0	92,789,910.0

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-68-1-12-218-K/23-son qaroriga
5-ilova

TUPROQQAL’A TUMANI MAHALLIY BUDJETINING 2023-YILGI YUQORI BUDJETDAN AJRATILADIGAN TARTIBGA SOLUVCHI BUDJETLARARO TRANSFERTLAR MIQDORLARI

(ming so’mda)

Tuman	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**11,133,366.0**
shundan	
Tuproqqal’a tumani	11,133,366.0

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-68-1-12-218-K/23-son qaroriga
6-ilova

TUPROQQAL’A TUMANI MAHALLIY BUDJETIDA YO‘L QO‘YILADIGAN ENG KAM MABLAG‘LAR MIQDORI

(ming so‘mda)

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
	JAMI	**438,000.0**
	shundan	
1	Tuproqqal’a tumani	438,000.0

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-68-1-12-218-K/23-son qaroriga
7-ilova

Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash maqsadida
2023-yil uchun belgilangan mulk qiymatining nominal
MIQDORLARI

(ming so‘mda)

T/r	**Tuman nomi**	**Soliq kodeksiga asosan mulk qiymatining mutlaq miqdori** (SK 412-modda)	**Koeffitsent (1,0 dan 0,5 gacha)**	**2023-yil uchun Yuridik shaxslar mol-mulkining minimal** (qiymatlari 1 kv.metr uchun mimg so‘mda)
1	Tuproqqal’a tumani	1000.0	0.60	600.0